



Andijan State Medical Institute
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

Oncomorphology.

Lecture-11

Melanin-producing and nerve tissue tumors

Lecturer: Mamataliyev Avazbek Ro'zuvaevich.,

Docent, Candidatus Medicinae

11-Ma`ruza.

Melanin hosil qiluvchi to'qima o'smalari

Muallif: Mamataliyev Avazbek Ro'zuvaevich

REJA:

1

NEVUSLAR

2

MIYA
MODDALARINING
O'SMALARI

3

MELANOMA

4

NAZORAT
SAVOLLARI
(ASSIGNMENT)

5

FOYDALANILGAN
ADABIYOTLAR

Nevuslar

Nevuslar – terida (yuzda, tanada) qoramtir rangli boʻrtib turuvchi tuzilma koʻrinishida kuzatiladi. Nevus hujayralari embrional davrda neyroektodermal nerv nayi tojidan melanoblastlar epidermisning bazal qatlamiga oʻtgan maxalida paydo boʻladi.



**Nevuslar 3
turga
bo'linadi:**

ko'p uchraydigan oddiy
nevus (oddiy xol)

displasik nevus

kam uchraydigan
nevuslar:

pigmentli ulkan tug'ma
nevuslar

moviy nevus

murakkab nevus

galo-nevus

Asosiy ko'rinishlari:

Chegaradosh nevus - nevus hujayralari to'plami epidermis va derma chegarasida uchraydi.

Derma ichidagi nevus – nevus hujayralar to'plami faqat dermada kuzatiladi. Nisbatan kam uchraydi. Nevus hujayralari melanin pigmentini ko'p tutadi. Ba'zan ko'p yadroli gigant nevus hujayralari uchraydi.

Epitelioid (yoki arg'amchisimon) hujayrali nevus – yorug' sitoplazmali epitelioid hujayralardan va arg'amchisimon hujayradan iborat bo'lib, asosan bolalarni (yuvenil) yuzida uchraydi. Nevus ko'rinishida, melanin kam yoki butul bolmasligi mumkin. Ko'p yadroli gigant hujayralarni bo'lishi xarakterli bo'ladi.

**Nerv
to'qimasi
o'smalari**

**Markaziy nerv
sistemasida
o'smalar
quyidagilardan
rivojlanadi:**

**Miya
pardalaridan**

**Miya
moddasidan
(gliya va
ganglioz
hujayralar)**


**Miya
qorinchalarid
an (ependima,
tomirli
chigalda).**

Epifizdan

Neyro ektodermal o'smalar		
Hujayralar	Yaxshi sifatli o'smasi	Yomon sifatli o'smasi
Astrosit, astroblast	Astrositoma	Astrosito blastoma
Oligodendrogliosit	Oligodendro glioma	Oligo dendroglio blastoma
Ependimosit	Ependimoma	Ependimoblastoma
Xorioidepiteliy	Xorioidpapilloma	Xorioidkarsinoma
Ganglioneyrostit	Ganglionevroma	Ganglioneyro blastoma
Medulloblast	-	Medullo blastoma
Glioblast	-	Glioblastoma
Meningial tomir va miya pardalari o'smalari		
Meningoteliy	Meningioma	Meningeal sarkoma

Miya pardalaridan: yumshoq parda va o'rgimchak pardaning qoplovchi hujayralaridan - meningioma, araxnoidendotelioma (yetilgan yaxshi sifatli o'smalar).

Ularning quyidagi turlari bo'ladi:



Bu o'smalar tashqi ko'rinishi bo'yicha qattiq, tugun ko'rinishida bo'lib, miyaning qattiq va yumshoq pardalari bilan bog'liq bo'ladi.

Mikroskop ostida – endoteliysimon hujayralar, biriktiruvchi to'qima tolalari va oxakli tanachalar ko'riladi.

Miya pardalaridan rivojlanuvchi etilmagan, yomon sifatli o'sma – meningial sarkoma deyiladi.






Image 2: https://www.researchgate.net/figure/Meningeal-sarcoma-histology-Representative-meningeal-sarcoma-A-Expansile-meningeal_fig5_306255879

Meningioma

Miya yumshoq pardasidan o'sadi. O'rgimchak to'riga o'xshash pardadan o'ssa araxnoidendoteliom deyiladi. Bu o'sma miya pardalariga yopishgan holdagi qattiq o'sma hisoblanadi. To'qimasi aylana joylashgan hujayra to'plamlaridan iborat.





Meningioma (psammoma tanachalar, to'qima atipizmi) / X200. Bosh miya yumshoq pardasidagi meningioma. Unistentrik o'sish.

Miya moddalarining o'smalari

Glioma

xavfsiz, yaxshi
sifatli larga:

xavfli: yomon
sifatli larga

Oligodendroglioma

Asrositoma

Glioblastomalar

Oligodendroblastoma

Asroblastoma

Ganglioz
hujayralaridan etiluvchi
xavfsiz, yaxshi sifatli
o'smaga –
ganglionevroma kiradi.

*Xavfli, yomon sifatli
o'smalariga:*

1. Ganglioneuroblasoma
2. Medulloblastomalar kiradi.



Fibrillyar astrositoma

Astrositoma

eng ko'p uchraydigan o'sma. U yosh bolalar va o'smirlarda, bosh miyaning barcha sohalarida uchraydi. Diametri 5-10 sm, chegarasi noaniq, to'qimasi oqish. O'sma to'qimasida tomirlari kam, sekin o'sadi. 3 ta varianti mavjud:



Protoplazmatik
astrositoma

Aralash tarkibli
astrositoma





1-Fibrillyar va 2-protoplazmatik astrositomalar. x200.

Oligodendroglioma - nisbatan kam uchraydi. Dumaloq va oval yadroli, sitoplazmasi och bo'yaladi. Bu o'sma sekin o'sadi. Stomasida yupqa devorli mayda tomirlar ko'p. Tomir devori mukoid bo'kishga uchraydi. O'sma to'qimasida kista va oxaklanish o'choqlari paydo bo'ladi.





1-Oligodendroglioma va 2-anaplastik oligodendroglioma. x200.

Ganglionevroma - kam uchraydigan xavfsiz o'sma. 3-qorincha sohasida ko'p o'sadi, ayrim hollarda katta yarim sharlarda ham o'sishi mumkin. To'qimasi etilgan, betartib joylashgan ganglioz nerv hujayralaridan tashkil topgan.




1-Ganglionevroma va 2-anaplastik papilloma. x200.

Glioblastoma - glial hujayralardan o'suvchi xavfli o'sma. Uchrashi bo'yicha 2-o'rinda turadi, tez o'sadi. Bosh miyaning oq moddasida joylashadi. 40-60 yoshli kishilarda ko'p uchraydi. Hujayra atipizmi kuchli rivojlangan.



Glioblastoma x200.





Bu o'smalar yumshoq, kulrang-qizg'ishrangli, tugun ko'rinishida bo'lib, qon quyilgan va nekroz o'chog'lari kuzatiladi. Bu o'smalar – tananing qarama – qarshi tarafida falajlik keltirib chiqaradi.

Etilmagan o'smalar yumshoq bo'lib, suyak to'qimasining emirilishiga olib keladi.

Bosh miya yarim sharlarini glioblastomasi. Infiltrlovchi o'sish.

Medulloblastoma – bu xavfli o'sma eng etilmagan hujayralar medulloblastlardan o'sadi. Asosan miyachada uchraydi. Yosh bolalarda aniqlanadi. Hujayra atipizmi kuchli rivojlangan, juda xavfli o'sma hisoblanadi



Medulloblastoma. x200.

Miya qorinchalarini o'smalari:

Xavfsiz, yaxshi sifatilarga



Ependimoma



Xoriondepitelioma

Xavfli, yomon sifatilarga:





Ependimoblastma





Xoroidkarsinoma

Ependimoma - bosh miya qorinchalari devori ependimasidan o'sadi. Intra- va ekstraventrikulyar tugunlar paydo qiladi. Mikro- tomirlar atrofida uni- va bipolyar hujayralar "pseudorozetkalar" paydo qiladi. O'sma to'qimasida kista va nekrozlar aniqlanadi.



1-Ependimoma va 2-anaplastik ependimoma/ x200.

Xorioid papilloma - bosh miya qorinchalari tomirlar to'ri epiteliysidan o'sadi. U qorinchaichiga o'sgan so'rg'ichli tugundan iborat. Ko'p sonli so'rg'ichlar yuzasini prizmatik va kubsimon epiteliy qoplagan.



1-Xorioid va 2-anaplastik papilloma. x200.

Periferik nerv sistemasining o'smalari

Xavfli, yomon
sifatlilarga

yomon sifatli
nevrilemmoma



Xavfsiz, yaxshi sifatlilarga:

1.Nevrilemoma (nevrinoma)


2. Neyrofibroma

(Reklinga o'zen kasalligi).



NEVRINOMA (neyrolemmoma, shvannoma). Ko'p uchraydigan o'sma. Tayoqsimon yadroli shvann hujayralaridan o'sadi. Betartib retikulyar to'r paydo qilib joylashishi mumkin. Retikulyar nevrinoma – ritmik tuzilishga ega bo'lishi mumkin



1- Retikulyar va 2-fassikulya
nevrinoma/ x200.



1-2 Teridagi neyrofibromatoz (Ekspansiv, multisentrik o'sish). 2-Orqa miya kanaldagi nefrofibromatoz (unisentrik o'sish). Neyrofibromatoz. (NF-geni delesiyesi orqali nasldan – naslga beriladi)



1-O'pka rakini bosh miyadagi gematogen metastazlari. 2-Gipofiz adenomasi. Ekspansiv o'sish.

Oyoq kafti sohasidagi chegaradosh nevus. Peshona sohasidagi moviy nevus.

Oddiy nevus. 3 davrda rivojlanadi:

1) nevus hujayralari bazal qatlam doirasida epiteliy ichida joylashadi

2) nevus hujayralari xam epiteliy xam derma ichida joylashadi


3) nevus hujayralari faqat derma ichida joylashadi.

Diametri 1 sm-gacha, to'q – jigarrang – qoramtir rangda 20-30 yoshlarda namoyon bo'ladi. Yosh ulg'aygan bilan pigmenti kamayadi.


Tug'ma ulkan pigmentli nevus - «Yoqa», «englik», «nimcha» ko'rinishlarida bo'ladi. Nevus hujayralari dermada joylashadi, oval shaklda, sitoplazmasi bazofil, biriktiruvchi to'qima orasiga xam tarqaydi.



Yelka va qo'ltiq osti sohasidagi tug'ma ulkan pigmentli nevus. Ko'krak sohasidagi Galo-nevus.

A decorative graphic consisting of a white circle with a black outline, connected by a thin green line to a larger white circle with a black outline. The background is light gray with several white bubbles of varying sizes.

Murakkab nevus – cho'qqi ko'rinishida joylashadi, qattiq bo'ladi. Epidermis va derma chegarasida joylashadi, yoki derma ichida aniq chegaralangan bo'ladi.

A decorative graphic consisting of a white oval with a black outline, connected by a thin green line to a larger white oval with a black outline. The background is light gray with several white bubbles of varying sizes.

Galo-nevus (Satton kasalligi) - derma ichida joylashadi, vitiligo bilan birga uchraydi, gavdada, qo'l terisida uchraydi (kamroq yuzda) ko'p bo'ladi. Diametri 4-5 sm-gacha dumaloq, oval qizil-jigarrang tugun, teridan bo'rtib turadi. Terida giperkeratoz, akantoz kuzatiladi. Nevus hujayralari – poligonal pufaksimon yadroli bo'ladi.

Moviy nevus. Ayollarda bilak, qo'l panjalarida uchraydi. Diametri 2 sm-gacha bo'ladi, tuxumsimon, o'chog' yoki tugun ko'rinishida, yuzasi silliq bo'ladi. Rangi xavo-rangdan to to'q—ko'k ranggacha, nevus hujayralari chuqur joylashadi.



Nevislarni kam uchraydigan turlari (fibroepitelial, papillamatoz, chiziqli, so'galsimon) va Dyubreyni o'sma oldi melanozi.

Displasik nevus.

Oddiy nevus hujayralarida denovo yo'li bilan xosil bo'ladi.

- Farqi:**
- 1) ko'pincha o'smaga aylanadi
 - 2) oilaviy, irsiy xarakterda bo'ladi
 - 3) makro-mikroskopik melanomagan o'xshash
 - 4) bosh, dung'aza, sut bezlarida uchraydi.

Nevusning diametri 1 sm-gacha, chegarasi noaniq, rangi xar-xil bo'ladi.

- Joylashuvi:**
- 1) bazal membranada
 - 2) epidermis va dermada.

Mitozlari ko'p, atipizm bor, pigment ortadi.

Melanoma

Melanin hosil qiluvchi to'qimani yomon sifatli o'smasi, metastazlanishga yuqori moil bo'lgan, o'smalar ichidagi eng xavfli, u terida, ko'zni pigment qatlamida, miya qobig'ida, Baugli qopqasida, kamroq shilliq qatlamlarida kuzatiladi.

Nevuslarda xam rivojlanishi mumkin. Ko'pincha melanoma yuz, oyoq, gavda terisida qoramtir tariqsimon yoki jigarrang qirmizi rangli nuqtasimon ko'rinishhda uchraydi. O'sma hujayrasi arg'amchisimon yoki polimorf bo'lib, melanin aniqlanadi.

Ba'zan pigmentsiz melanomalar xam uchraydi. O'smada mitozlar, qon quyilishlar, nekrozlar ko'p bo'ladi. Melanomalar parchalanganda ko'p miqdorda melanin va promelanin xosil bo'lib, melaninemiya va melaninuriyaga olib boradi. Melanoma juda erta gematogen va limfogen metastazlar beradi. Tuhumsimon, dumaloq, yara va b. ko'rinishhlarda bo'ladi.

Asosiy shakllari:

tarqalib boradigan yuza melanoma



tugunsimon melanoma




O'sish shakllari:

radial o'sish – epitelial qatlam doirasida o'sadi



vertikal o'sish (xavfli) – derma, lentikulyar qavat va teri osti to'qimaga tarqaydi.






Yuza melanoma

Epidermis qalinlashadi, giperkeratoz kuzatiladi. Epidermis o'rnini atipik hujayralar egallaydi. Radial va vertikal o'sadi (limfoplazmasitar infiltratsiya bilan birga kuzatiladi).




Melanoma xavfi yo'q nevuslar (chiziqli, mongol dog'i, fibroepitelial va papilamatoz).

Tugunsimon melanoma

-terida bo'rtib turuvchi, yumshoq tugun ko'rinishida, diametri 1-3 sm-gacha, butun epidermisga tarqab, yaraga aylanadi. Faqat vertikal o'sish beradi. Dermani so'rg'ichsimon va to'rsimon qatlamidan teri osti to'qimasiga o'sib o'tadi.



Yuz sohasidagi yuza va tugunsimon melanomalar. Makro-mikroskopik manzarasi. x100



1- Nevus. 2-3 Melanoma (makro-
mikroskopik ko'rinishi)

Melanoma hujayralarini turlari:

- 1) yirik yadroli epiteliysimon
- 2) duksimon hujayralar
- 3) giperxrom yadroli yumaloq mayda nevussimon
- 4) mayda giperxrom yadroli ballonsimon

Melanomaning gistologik o'sish bosqichlari:

1-bosqich o'sma epidermis doirasida

2-bosqich o'sma bazal membranadan dermani so'rg'ichsimon qatlamiga o'sadi.

3-bosqichda so'rg'ichli qatlam o'sma hujayralariga to'ladi, to'rsimon qatlamgacha boradi.

4-bosqich to'rsimon qatlamga o'tadi (invaziya)

Melanoma hujayralarini turlari:


- 1) yirik yadroli epiteliysimon
- 2) duksimon hujayralar
- 3) giperxrom yadroli yumaloq mayda nevussimon
- 4) mayda giperxrom yadroli ballonsimon

Melanomaning gistologik o'sish bosqichlari:

- 1-bosqich o'sma epidermis doirasida
- 2-bosqich o'sma bazal membranadan dermani so'rg'ichsimon qatlamiga o'sadi.
- 3-bosqichda so'rg'ichli qatlam o'sma hujayralariga to'ladi, to'rsimon qatlamgacha boradi.
- 4-bosqich to'rsimon qatlamga o'tadi (invaziya)
- 5-bosqichda teri osti to'qimasiga tarqaydi

Nazorat savollari

Assignment

- 
1. Melanomaning gistologik o'sish bosqichlari qaysilar?
 2. Melanoma shakllarini ayting?
 3. Satton kasalligini patomorfologik belgilari?
 4. Kam uchraydigan nevuslar qaysilar?
 5. Astrositoma nima va uning uchrash turlarini ayting?

Test savollari

1. II tipdagi melanomani zamonaviy xirurgik davolashda ko`rinib turgan o`sma chetidan qancha utish kerak?

- A) 1 sm
- B) 4 sm
- C) 2 sm
- D) 3 sm

2. Melanomada profilaktik limfadenektomiyaga ko`rsatma:

- A) Klark bo`yicha 4-5 invaziv darajasi
- B) Klark bo`yicha 1-2 invaziv darajasi
- C) Klark bo`yicha 3- invaziv darajasi
- D) invaziya darajasiga bog`liq emas

3. Melanomada qaysi diagnostik metod qullaniladi

- A) to`g`ri javob yo`q
- B) kirib olish
- C) punksiya
- D) otpechatok

4. Terining bazal membranasi gacha o'sgan melanoma Klark bo'yicha nechanchi invaziv darajaga ega?

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

5. Melanomaning qaysi belgisi kechki va mutlaqo aniq simptom xisoblanadi

- A) Yengil qonash
- B) o'smaning tez o'sishi
- C) Nursimon o'sish
- D) Pigmentasiyaning o'zgarishi

6. Qaysi pigmentli hosila, odatda melanomaga aylanadi?

- A) Rakoldi nevusi
- B) Yuvenil nevusi
- C) «Mo'g'ul dog'i»
- D) Xavorang nevus

7. Retikulyar qavatning shikastlanishiga melanomadagi invaziyaning qaysi darajasi to'g'ri keladi?

- A) II daraja
- B) III daraja
- C) I daraja
- D) IV daraja

8. Tana terisi melanomasi morfologik tasdiqsiz klinik tashxisi qo'yilgan xolda qaysi davolash turi maqbul?

- A) Xirurgik
- B) Ximioterapiya
- C) Krioterapiya
- D) Immunoterapiya.

9. Teri local melanomasini asosiy davolash usulini ayting:

- A) Xirurgik
- B) Nur
- C) Kombinatsiyalashgan
- D) Ximioterapiya

10. Teri melanomasi diagnostikasi quyidagi tadqiqotlarga asoslanadi (tashqari):

- A) o'sma termografiyasi
- B) radioizotopli skanerlash radiaktiv ^{32}R yordamida
- C) surtmaning sitologik tekshirishi- o'sma izi
- D) punksiya biopsiya

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аббас А.К., Фаусто Н., Астер Дж. и др. Основы патологии заболеваний по Роббинсу и Котрану Том 2: главы 11-20. — М.: Логосфера, 2016. — 616 с.;
2. Abdullaxo'jaeva M.S. Patologik anatomiya: darslik / -Toshkent: 1-qism. "Tafakkur-Bostoni", 2012. 512с.
3. Абдуллаходжаева М.С. Атлас патологической анатомии. – Ташкент: Нихол. 2013.-352б.
4. Дамианов Иван. Секреты патологии/. перевод с англ.: Москва. МИА. 2006. 500с.
5. Зайратьянца О.В., Тарасовой Л.Б. Патологическая анатомия: руководство к практическим занятиям. Учеб.пособие. М.: ГЭОТАР-Медиа. 2015. -696с.
6. Зайратьянца О.В. Патологическая анатомия. Атлас. М.: ГЭОТАР-Медиа. 2015. -710с/
7. Клатт Э.К. Атлас патологии Роббинса и Котрана / пер. с англ.: под.ред. О.Д.Мищнева, А.И.Щеголова. –М.: Логосфера, 2010.-544с.
8. Кривенцов М.А.и др. Краткий курс патоморфологии. Часть 1: тОбщая патология. Учение об опухолях. Симферополь, 2016. -250с.
9. Кумар В. Основы патологии заболеваний по Роббинсу и Котрану / пер. с англ.; под ред. Е.А. Коган. Том 1: главы 1-10. — М.: Логосфера, 2014. — 624 с.
10. Козаченко В.П. Рак матки. – М.: Медицина, 1983. – 236 с
11. Копнин Б.П. Онкогены, антионкогены и канцерогенез // Арх. пат. – 1990.-№9.- С. 3- 11.
12. Мате Дж.. Гистологическая и цитологическая классификация опухолевых болезней кроветворной и лимфоидной тканей. Международная гистологическая классификация опухолей №14. ВОЗ. Женева. 1978.
13. Bergers G, Benjamin L: Tumorigenesis and the angiogenic switch. Nat Rev Cancer 3:401, 2003.
14. Darnell R, Posner J: Paraneoplastic syndromes involving the nervous system. N Engl J Med 349:1543, 2003.
15. L.Maximilian Buja. Netter's Illustrated Human Pathology Second Edition. SAUNDERS. ELSEVER.-2015.528s.

E'TIBORINGIZ UCHUN KATTA RAHMAT!!!

AVAZBEK MAMATALIYEV RO'ZUVAEVICH



DR.MAMATALIYEV66@GMAIL.COM

